

Манба ва фойдаланилган адабиётлар:

1. Иванова В.М. Туризм: основы, направления, структура. – М.: ИД “Феникс”, 2008. – 265 с.
2. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. – М.: Аспект Пресс, 2002. – 470 с.
3. Дмитриев М.Н., Забаева М.Н. Экономика и предпринимательство в социально-культурном сервисе и туризме: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – 236 с.
4. Кусков А.С., Голубева В.Л., Одинцова Т.Н. Рекреационная география: Учебно-методический комплекс. – М.: Флинта, 2005. – 496 с.
5. Каменева В.В. Антонова А.Н. Транспортная составляющая инфраструктуры туризма. // Региональная экономика: теория и практика, 2009. – № 8. – С. 33–37.
6. Локтева М.С. Туризм как сфера социально-культурной деятельности // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Образование, здравоохранение, физическая культура. – 2006. – № 16. – С. 119–123.
7. Суванова Д.Н. Заражен воҳасида туризм инфратузилмасини инновацион ривожлантиришнинг рақамли микроқитисодиётдаги роли. // “Science and Education” Scientific Journal. May 2020, 225-229-бетлар. // www.openscience.uz
8. Абдураимов Д.М. Туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятни амалга ошириш омиллари ва хусусиятлари. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №2, mart-aprel, 2021 yil. 386-395-бетлар. // http://iqtisodiyot.tsue.uz
9. Норчаев А.Н. Туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятни амалга ошириш омиллари ва хусусиятлари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. №1, январь-февраль, 2019 йил. 1-8-бетлар. // www.iqtisodiyot.uz
10. Боголюбова С.А., Василиха Д.Ф. Факторы неэффективного развития региональной инфраструктуры туризма. // Современные проблемы науки и образования. – Режим доступа: <http://www.science-education.ru/100-4960>.
11. Воскресенский В.Ю. Международный туризм: Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 255 с.

**XORAZM VILOYATIDA TURISTIK-REKREATSION XIZMATLARNING
RIVOJLANISH HOLATI VA TAHLILI**

**Ibadullaev Ergash Bakturdiyevich –
Urganch davlat universiteti doktarantı**

Annatotsiya: Ushbumaqolada Xorazm viloyatining turistik-rekreatsion xizmatlarning rivojlanish holati sotsiologik so'rovnoma o'tkazish orqali tahlil qilingan. So'rovnomada viloyatda turistik-rekreatsion xizmatlarga bo'lgan potensial talab o'r ganigan va sohanirivojlanirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turistik-rekreatsion xizmatlar, sanotoriy-kurort, talab, turizm, respondent Covid-19.

**СОСТОЯНИЕ И АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ И РЕКРЕАЦИОННЫХ
УСЛУГ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ**

**Ибадуллаев Эргаш Бактурдиевич –
Докторант Ургенчского государственного университета**

Аннотация: В статье на основе социологического исследования анализируется состояние развития туристско-рекреационных услуг в Хорезмской области. В ходе исследования изучен потенциальный спрос на туристско-рекреационные услуги в регионе и разработаны научно-практические рекомендации по развитию отрасли.

Ключевые слова: туристско-рекреационные услуги, санаторий, спрос, туризм, респондент, Covid-19.

**CURRENT CONDITION AND ANALYSIS OF DEVELOPMENT OF TOURISM AND
RECREATION SERVICES IN KHOREZM REGION**

**Ibadullaev Ergash Bakturdiyevich –
Phd student of Urgench State University**

Annotation: This article analyzes the state of development of tourist and recreational services in Khorezm region through a sociological survey. The survey studied the potential demand for tourist and recreational services in the region and developed scientific and practical recommendations for the development of the industry.

Keywords: tourist and recreational services, sanatorium-resort, demand, tourism, respondent, Covid-19.

Kirish. XXI asrning o'tgan davri mobaynida turizm sohasining jahon mamlakatlari iqtisodiyoti-da tutgan mavqeyi sezilarli darajada oshdi. Dunyo-ning ko'plab mamlakatlari ushbu tarmoqni maml-

kat YalMning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lish potensialini yaxshi anglab yetdi. Bundan tashqari turizm insonlarni nafaqat vaqtini yaxshi o'tkazish, sog'ligini tiklash, ta'lim berish, balki boshqa bir

insonlarni yashash sharoitlarini yaxshilovchi soha sifatida ham qarala boshlandi.

O'zbekistonda 2016-yildan boshlab turizm sohasini rivojlantirish uchun keng qamrovli ishlar boshlandi hamda 2019-yilda bu harakatlar o'z mevasini berdi va mamlakatga 6.7 million xorijiy turist tashrif buyurib ushbu tarmoqning mamlakat YaIMdagi ulushi 5.2%ga, ish bilan bandlar soni 680.5 ming kishiga va tashrif buyuruvchi xorijiy turistlarning sarf-harajatlari 1.5 million dollarni tashkil qilib, xizmatlar eksportining 9.8%ni tashkil qildi [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son [Farmoniga](#) muvo-fiq "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish" konsepsiysi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyanı amalga oshirishdan maqsad, turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko'paytirish hisoblanadi.

Ushbu yo'nalihsda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali 2025-yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni jalb qilish belgilab o'tildi va mamlakatning xilma-xil hamda yilning turli fasllarida jozibador va raqobatbardosh turistik mahsulotlari, shu jumladan, mamlakat hududlarida tematik turistik zonalari va klasterlarni yaratish orqali hamda turizmning istiqbolli turlari (ziyorat, ma'rifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, sport, davolovchi-sog'lomlashtiruvchi, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik va boshqalarni) hisobga oлgan holda yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish belglandi[2].

Xorazm viloyati respublikamizning o'ziga xos turistik-rekreatsion xizmatlarga boy bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Viloyatning turistik-rekreatsion resurslari imkoniyatlari, mahalliy aholining turistik-rekreatsion xizmatlarga bo'lgan talab, uning bugungi holati juda kam tadqiq qilingan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda sotsiologik so'rovnomalar asosida mahalliy aholining turistik-rekreatsion xizmatlarga bo'lgan talab tomoni tahlil qilingan. Tahlil natijalariga asoslanib, istiqbolda Xorazm viloyatida turistik-rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha amaliy ahamiyatga moliktavsiyalar ishlab chiqildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

"Rekreatsiya" tushunchasi dunyo va mamlakatlari-miz tomonidan keng ko'lamma o'rganilganiga qaramasdan hozirgacha ushbu mavzuga aloqador tushunchalarning yagona talqini mavjud emas. "Rekreatsiya" atamasi lotincha "recreation", ya'ni "qayta tiklash" so'zidan kelib chiqqan va berilgan ta'riflarning asosini aynan shu jumla tashkil qiladi. V.I.Grigoryev va V.S.Simonovlarning fikriga ko'ra, ijtimoiy ne'matlar nazariyasi nuqtayi nazaridan rekreatsya bu dam olishni maqsadli tashkil etish orqali tegishli bilim va ko'nikmalarnio'zlashtirishga

yo'naltirilgan faoliyat turidir [3]. Boshqa bir g'arb olimlari R.Charles va J.Brentlar rekreatsianing tashrif davomida asosiy yoki ikkilamchi ehtiyoja aylanishi turistlarning turiga qarab farq qilishini aytilib o'tishgan [4].

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham o'tgan davr mobaynida turistik-rekreatsion xizmatlarning rivojlanishibo'yicha bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, M.Q. Pardayev "rekreatsya" tarmoq jihatdan dam oluvchining jismoniy, aqliy, ma'naviy kuchini hamda salomatligini va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan korxona, tashkilotlarning majmui deb tariflaydi[5]. Shuningdek, Z.Usmonovning tadqiqot ishida "rekreatsya" tushunchasi uydan tashqarida, masalan, sanotoriy-kurort, tabiat qo'yni, sog'lomlashtirish muassasalarida dam olish yo'li bilan salomatlikni va inson kuchini qayta tiklash deb ta'riflangan. Tadqiqot ishi Samarqand viloyati misoldida olib borilgan hamda viloyat, tuman va shaharlarining turistik-rekreatsya salohiyati 5 ta omil bo'yicha baholangan [6].

Rekreatsya atamasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda Z.T.Abdulxakimov rekreatsya nafaqat mehnat qobiliyatini qayta tiklash, balki ruhiy dam olish, jismoniy va ruhiy quvvat olishni ham o'z ichiga qamrab olishini ta'kidlab rekreatsya - bu tabiiy muhitda inson o'zining mehnat qilish qibiliyatini qayta tiklay olishi va dam olishi mumkin bo'lgan (tabiatning manzarali joylari, sharshalar, tabiiy yodgorliklar va qo'riqxonalar, davolaniш va dam olishga mo'ljallangan sanotoriy, turizm bazalari, tarixiy yodgorliklar, muzeylar, teatrlar va turli boshqa tadbirlar)ni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon.Yana, shuningdek, tadqiqot ishida Namangan viloyatining asosiy rekreatsion obyektlarining ko'pomilli prognozlari bajarilgan[7].

Yuqoridagi olimlardan tashqari M.Abdullajon o'z ilmiy ishlarida rekreatsiyaga ta'rif berganda sport bilan shug'ullanishni ham kiritib o'tgan va rekreatsiyani insonlar dam olish obyektlarida o'z sog'lig'ini va mehnatga qibiliyatini qayta tiklashi, sayyoqlik yo'li bilam tabiatning turli maskanlariga borishi, arxitektura va tarixiy yodgorliklarni borib ko'rishi va rekreatsya o'z ichida bir qancha sohalarни, jumladan, sogliqni tiklash, sanotoriy-kurort, sport bilan shug'ullanish ham kiritgan[8]. Rekreatsya tushunchasi geografik xususiyatlardan kelib chiqib ham o'rganilgan bo'lib mintaqqa iqtisodiyotining rivojlanishiga rekreatsion-turistik salohiyatdan samarali foydalanishning ta'siri aniqlangan, bundan tashqari G.Alimovao'z tadqiqot ishida Toshkent viloyatining rekreatsion-turistik obyektlari tashrif buyuruvchilar orasida 5 ballikda asosiy oltita omillar bo'yicha so'rovnoma o'tkazilgan va natijalar asosida mintaqqa turistik-rekreatsion xizmatlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berib o'tgan [9].

Tadqiqot ishi jarayonida, Xorazm viloyatida turistik-rekreatsion xizmatlarning rivojlanishi bilan bog'liq amalga oshirilgan ishlarni ham tahlil qildik. Jumladan, mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha yetuk olimlardan, B.Ruzmetovning ishlarida Xorazm viloyati turistik-rekreatsion xizmatlari bozori rivojlanishining SWOT tahlili amalga oshirilgan. Rekreatsiya obyektlarining joylashgan hududlari yuqori geografik va tabiiy sharoitda ekanligi kuchli tomoni sifatida qayd qilingan, turar joylarning xalqaro standartlarga mos kelmasligi, infratuzilmaning past darajada ekanligi ushbu xizmatlar bozorini zaif tomonlari sifatida qayd qilingan va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha takliflar berilgan[10]. Shuningdek, Sh.Baxtiyorovning ishida Xorazm viloyatida «Xiva turistik klasteri», «Amudaryo ekoturistik zonasasi», «Xazorasp tarixiy-arxeologik parki» kabi turistik-rekreatsion obyektlarni optimal joylashtirish variantlari ishlab chiqilgan[11].

Yuqoridagi qayd qilingan olimlar ishlarida Xorazm viloyatining turistik-rekreatsion xizmatlarning rivojlanishi bilan bo'g'liq tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, empirik tadqiqotlar asosida mahalliy aholining ushbu xizmatlarga bo'lgan talab tomoni chuqur o'rganilmagan va tahlil qilinmangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jaryonida birlamchi ma'lumotlarni yig'ish maqsadida

sotsiologik so'rovnoma usulidan foydalanildi. So'rovnoma pandemiya sababli ijtimoiy-tarmoqlar (Telegram, Whatsapp, Facebook) orqali, 2021 yilning aprel-may oylarida o'tkazildi. So'rovnoma 17 ta savoldan tashkil topgan bo'lib, savollarasosan ikki qismga ajratildi. Birinchi qismda respondentlarning demografik holati haqidagi savollardan, ikkinchi qismi asosan, viloyatning turistik rekreatsion obyektlarining hozirgi kunda mavjud holati, aholining rekreatsion xizmatlardan qoniqish darajalari bilan bog'liq savollardan iborat bo'ldi. So'rovnomada mahalliy aholidan 404 nafar respondentning javoblari yig'ildi va Excell dasturida tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot davomida ikkilamchi ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi rekreatsion xizmatlarning statistik tahlili amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. So'ngi yillarda mamlakat miqiyosida turistik-rekreatsion xizmatlarning rivojlanishi ko'rsatkichlarida o'sish tendensiyasida ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi turistik-rekreatsion xizmatlarning asosini sanotoriya-kurort muassasalari tashkil qiladi. Tadqiqot davomida, O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida sanotoriya-kurort muassasalari faoliyatining 2011-2019-yillardagi rivojlanish dinamikasini tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlaridagisanotor-kurort tashkilotlarining 2011-2019-yillardagi rivojlanish dinamikasi

	Sanotoriya-kurortlar soni		Nomerlar fondi				Joylashtirilgan rekreatantlar soni	
			Xonalar soni		O'rinnlarsoni			
	2011	2019	2011	2019	2011	2019	2011	2019
O'zbekiston Respublikasi	149	211	9629	13635	16999	28100	255096	528000
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12	7	364	212	855	600	6370	6800
Viloyatlar								
Andijon	10	12	302	362	855	800	8858	9800
Buxoro	5	4	252	201	470	600	6881	9300
Jizzax	4	11	431	1185	672	1300	10558	24400
Qashqadaryo	9	17	421	795	885	2300	7653	13200
Navoiy	5	7	348	487	582	700	7911	12700
Namangan	13	18	1351	1870	2458	2900	38661	70900
Samarqand	11	29	606	1597	862	2800	12416	22900
Surxondaryo	7	12	373	639	430	1300	3051	14300
Sirdaryo	2	2	3	3	112	300	522	900
Toshkent	24	36	2288	3432	3500	6300	65280	134000
Farg'on'a	25	36	1892	2724	2898	4200	47877	152700
Xorazm	5	5	88	88	445	600	3022	5500
Toshkent sh.	17	15	910	802	1975	3400	36020	50900

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlansMASI.

1-jadval ma'lumotlariga muvofiq, 2011-yilda mamlakatimizda jami faoliyat yuritayotgan sanotor-kurortlar soni 149 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilga uarning soni 211 tani tashkil qilib, 30%dan ziyodga oshgan. Shuningdek, sanotoriya-kurort muassasalarining xonalar sonida ham mutanosib tarzda o'sish kuzatilgan. Jumladan, 2011-yilda jami xonalar soni 9629 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2019-

yilda 13635 tanitashkil qilib, 30% ga ko'paygan. Respublika sanotor-kurortlarida dam olgan rekreatantlar soni ushbu davr oralig'ida, deyarli 100%ga oshgan. Shuningdek, viloyatlar kesimida tahlil qilinganda, sanotoriya-kurort muassasalari Samarqand, Farg'on'a hamda Toshkent viloyatlarida ko'payganligini ko'rish mumkin. Ammo, Xorazm viloyatida ushbu yillar oralig'ida sanotoriya-kurort

muassasalari soni o'zgarmagan. Faqat o'rirlar sonining ko'payishi hisobiga, joylashtirilgan rekreatnlar soni deyarli 55% ga ko'paygan.

So'rovnoma rekreatsiya tushunchasiga aholi turli xil qatlamlarining qarashlarini o'rganish, turistik rekreatsiya xizmatlariga potensial talabni aniqlash, rekreatsiya turlarini klassifikatsiyaga ajra-

tishda ham amaliy jihatdan foydali ma'lumotlar berilishi inobatga olindi. So'rovnoma qatnashgancha larning 43.3% (179 nafar)ni ayollar va 55.7% (225 ta nafar)ni erkaklar tashkil qildi. So'rovnoma aholining demografik jihatlari (yosh, daromad, bandlik darajalari) ham hisobga olindi(2-jadval).

2-jadval


So'rovnoma ishtirok etgan respondentlar to'g'risida ma'lumot

Bandlik darajasi bo'yicha tasnifi	Respondentlar soni	Foizda
Davlat tashkiloti xodimlari	170	42%
Talabalar	94	23.4%
Nafaqaxo'rlar	63	15.5%
Xususiy tadbirkorlar	51	12.7%
Ishsizlar	26	6.4%
Jami	404 ta	100%
Respondentlarning yosh jihatidan tasnifi	Respondentlar soni	Foizda
20 yoshgacha bo'lganlar	48	12%
20-40 yosh	215	53%
40-60 yosh	91	22%
60 yoshdan kattalar	50	13%
Respondentlarning yosh jihatidan tasnifi	48	12%
20 yoshgacha bo'lganlar	215	53%
Jami	404 ta	100%
Oylik daromad bo'yicha tasnifi	Respondentlar soni	Foizda
1 mln. so'mgacha	95	23.5%
1-3 mln.so'm	132	32.6%
3-5 mln.so'm	130	32.3%
5 mln.so'mdan yuqori	47	11.6%
Jami	404 ta	100%
Ma'lumoti bo'yicha tasnifi	Respondentlar soni	Foizda
Oliy	256	63.4%
O'rtalik maxsus	92	22.8%
O'rtalik	56	13.8%
Jami	404 ta	100%

Manba: So'rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Jadval ma'lumotlariga muvofiq, so'rovnoma da ishtirok qilgan umumiyl respondentlarning 170 nafari, yani 42 % davlat tashkilotlari xodimlari, 20-40 yoshdagisi respondentlar soni 215 nafarni, ya'ni 53 %ni tashkil qilgan. Shuningdek, oylik daromad-

lari bo'yicha umumiyl respondentlarning 32,6%, yani 132 nafarining daromadi 1-3 mln. so'm atrofida hamda 32,3 %, 130 nafar respondentlarning daromadi 3-5 mln. so'm atrofini tashkil qilgan.



1-rasm. Respondentlar tomonidan tanlangan turistik-rekreatsion xizmatlar turlari (birlikda)


Manba: So'rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi

Umuman tadqiqotlarimiz jarayonida rekreatsion xizmatlarning asosini jismoniy sog'liqni tiklash, ruhiy tetiklanish, kundalik hayotimiz davomida to'planadigan va vaqtida bartaraf qilinmasa, keyinchalik sog'ligimizga salbiy ta'sir qiluvchi stresslar dan xoli bo'lish kabi tushunchalar tashkil qilishiga guvoh bo'ldik.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda so'rovnoma turistik-rekreatsion xizmat turlaridan qaysi biridan ko'proq foydalanilishi bo'yicha savol kiritilgan edi. So'rovnoma ishtirok qilgan respondentlarning eng ko'pi 206 nafari tabiat qo'ynida dam

olishni ma'qul ko'rishgan. Shuningdek, 101 nafar respondent sport turizmi xizmatlaridan foydalani shini bildirganlar (1-rasm).

So'rovnomaga viloyatning turistik-rekreatsion obyektlarining hozirgi ahvoli baholash bo'yicha savol kiritilgan edi. So'rovnomada ishtirok qilgan respondentlarning 44,2 % turistik-rekreatsion obyektlar bugungi holatinio'rtacha deb baholagan. Shuningdek, obyektlar holatini 30,1 % respondent past, 17,7 % juda past, 7,7% yuqori deb baholagan (2-rasm).



2-rasm. Xorazm viloyati turistik-rekreatsion obyektlarning bugungi holati

Viloyatda turistik-rekreatsiya xizmatlari taklifini to'g'ri shakllantish va rentabelligi yuqori biznes turiga aylantirish uchun albatta mavjud potensial talabning tarkibiy tahlili yaxshi qilinishi lozim. Bunda turistik-rekreatsion xizmat turlarining

nafaqat sifat balki qiymat jihatni ham e'tiborga olinishi kerak. Shu sababli so'rovnoma turistik-rekreatsion xizmatlarga oyiga qancha vaqt ajratilishi hamda yilda qancha mablag' sarflanishi ham o'rnatildi (3-jadval).

3-jadval

Turistik-rekreatsion xizmatlarga sarlanadigan vaqt va mablag' miqdori

Bandlik darajasi	Respondentlar soni	Foizda ulushi
Davlat tashkiloti xodimlari	170	42%
Talabalar	94	23.4%
Nafaqaxo'rlar	63	15.5%
Xususiy tadbirkorlar	51	12.7%
Ishsizlar	26	6.4%
Jami	404 ta	100%
Respondentlarning yosh jihatidan tasnifi	Respondentlar soni	Foizda ulushi
20 yoshgacha bo'lganlar	48	12%
20-40 yosh	215	53%
40-60 yosh	91	22%
60 yoshdan kattalar	50	13%
Jami	404 ta	100%
Oylik daromad bo'yicha tasnifi	Respondentlar soni	Foizda ulushi
1 mln.gacha	95	23.5%
1-3 mln	132	32.6%
3-5 mln	130	32.3%
5 mln.dan yuqori	47	11.6%
Jami	404 ta	100%

Manba: So'rovnoma natijalari asosida muallif ishlansMASI.

3-jadvalda ko'ra, so'rovnoma ishtirok qilgan respondentlarning 170 nafari, yani 42% davlat tashkiloti xodimlarini bo'lsa, eng kam respondentlar ishsizlar hisoblanib, ular 26 nafarni yoki 6,4%ni tashkil qildi. Respondentlarning yosh jihatdan tasniflanishini tahlil qilganimizda, eng ko'p 215 (20-40 yosh orasida) nafarni, yani 53%-ni tashkil qilgan. Shuningdek, eng ko'p 132 nafar respondentning bir oylik o'rtacha daromadi 1-3 mln.so'mni tashkil qilishi, eng kami, yani 47 nafar respondentning oylik daromadlari 5 mln.so'mdan yuqorini tashkil qilgan. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, viloyatda turistik rekreatsion xizmatlarga takliflar ishlab chiqishda hisobga olish lozim. So'rovnoma "turistik-rekreatsion xizmatlarning kundalik hayotingiz va ish samaradorligingizda tutgan o'rnnini qanday baholaysiz" degan savolga respondentlarning 21.4%ni "juda yuqori", 22.6% esa "yuqori" deb javob bergan.

O'zbekistonning turistik-rekreatsion faoliyatini tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Xorazm viloyatining sanotoriy-kurortlar soniboshqa viloyatlarga nisbatan taqqoslanganda juda kam bo'lib, boshqa rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yichaham orqada qolgan (1-jadval). Bu shundan dalolat beradiki, bugungi kunda Xorazm viloyatida qaysi turdag'i turistik-rekreatsion xizmatlarni ko'paytirish, ushbu

xizmatlarni qanday tartibda taklif qilish kabi dolzarb savollarga javob toppish zarur.

So'rovnoma natijalarini "Excel" dasturidagi "filtr" xizmati yordamida tahlil qilinganda turistik-rekreatsiya xizmatlariga bo'lgan talabda yosh omili juda katta ahamiyat ega bo'lishini ko'rsatdi. Yani, 90% nafaqa yoshidagi respondentlar eng ma'qul turistik-rekreatsion xizmatlar sifatida sanotoriy-kurort muassasalarini deb belgilanganlar. Shuningdek, 40-60 yosh atrofidagi respondentlar ham sanotoriy-kurort muassasalarini maqbul xizmat turlaridan biri sifatida e'tirof qilinganlar, ammo tabiat qo'ynida dam olish, sport va ziyorat turizmlari ham ular uchun muhim tanlov sifatida ko'rildi. 20-40 yosh atrofidagi respondentlar uchun eng katta talab tabiat qo'ynida hordiq chiqarish bo'lgan hamda istirohat bog'larida dam olish asosan 20 yoshgacha bo'lganlar tomonidan ko'proqe'tirof qilingan.

Undan tashqari, tadqiqot jarayonida turistik rekreatsion xizmatlarga bo'lganpotensial talabni aniqlash maqsadida respondentlardano'zi yashayotgan hududda qaysi xizmat turiga talab yetarlicha qoniqtirmasligi so'raldi. Ushbu savolda ham respondentlar o'zi yashayotgan hududdan kelib chiqib bir nechta variantni tanlash imkoniyati bor edi (3-rasm).



3-rasm. Turistik-rekreatsion xizmatlarga bo'lgan potensial talab


Manba: So'rovnoma natijalari asosida muallifishlanmasi

3-rasmga ko'ra, respondentlarning 209 nafari, turistik rekreatsion xizmatlar ichida sanotoriy-kurort muassasalarini eng muhimi deb e'tirof etganlar. Tabiat qo'ynida hordiq chiqarish ham respondentlar tominidan 187 marta tanlangan. Shuningdek, viloyatning deyarli hamma tuman vashaharlarida madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lishiga qaramasdan rekreatsiya xizmatlarining ushbu turiga ham aholi tomonidan yuqori talab saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, 2020-yilning birinchi choragida boshlangan Covid-19 pandemiyasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari singari turizm sanoatiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi. Shubhasiz, dunyoda

kechayotgan pandemiya inqirozimamlakatimiz turizm sohasiniham chetlab o'tmadidi. Tashqi va ichki turizm bozorlaridaturistik talabga Covid-19 pandemiyasi juda kuchli ta'sir o'tkazdi. Xususan, biz tadqiq qilayotgan Xorazm viloyati turizmining rivojlanishiga salbiy ta'sir qilib, 2020-yilda 2019-yilga taqqoslaganda xorijiy turistlarning tashrifi 90 %ga, mahalliy turistlarning tashrifi 85 %ga kamayishi ga olib kelgan[16].

So'rovnoma ishtirok qilgan respondentlarning 76,3 %, pandemiya davrida turistik-rekreatsion xizmatlardan foydalanish darajasi kamaygанини qayd qilgan.



4-rasm. Covid-19 pandemiyasidan so'ngviloyatda turistik-rekreatsiya xizmatlariga bo'lganpotensial talab

Manba: So'rovnomada natijalari asosida muallifishlanmasi

4-rasmga muvofiq, pandemiyadan so'ng muhim rekreatsiya xizmatlari sifatida, respondentlarning aksar qismi "sanotoriya-kurort" (136 nafar) va "tabiat qo'ynida dam olish" (108 nafar)ni afzal bilganlar. Sanotoriy-kurort muassasalari inson salomatligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy shifobaxsh vositalar, ya'ni mineral suvlar, shifobaxsh balchiq, iqlimning qulayligi va boshqa jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan dam olish maskanlari hisoblanadi [12].


Shuningdek, tabiat qo'ynida dam olish xizmatlarga asosan ekoturizm faoliyatini tashkil qilishni kiritishimiz mumkin.Ushbu turizm turi shahardan tashqarida, tabiatning so'lim go'shalarida tabiatga minimal darajada ta'sir ko'rsatgan holda dam olishni nazarda tutadi[13]. Pandemiya davrida insonlar ko'p yig'iladigan joylar aynan shahar mazkalar bo'lganligi sababli kasallik xavfini oshiradi. Ushbu kasallik yengilgandan so'ng ham ushbu vaziyat insonlar ongida ma'lum bir muddatga shartli refleks bo'lib saqlanib qoladi. Tabiat qo'ynida dam olish esa gavjumlikdan qochish bilan birgalikda insonga sokinliktuyg'usini beradi. Ushbu tahlil natijalaridan foydalanib turistik rekreatsion xizmatlar taklifini real shaklantirish imkonini mavjud hisoblanadi.

So'rovnomada respondentlar viloyatning hozirgi kundagi taklif qilinayotgan turistik-rekreatsion xizmatlarhajmi mavjud talabga mos kelmayotganligi aniqlandi. Jami respondentlarning 12,8% ko'rsatilayotgan turistik-rekreatsion xizmatlardan qoniqish darajasi "juda past" va 35 % "past" ekanligini

bildirgan. Shuningdek, 46,3 % respondent "o'rta", 5,6 % "yuqori" va 0,3 % "juda yuqori" deb javob bergan. Shu sababdan ham so'rovnomada qatnashgan ishtirokchilarning 52,3 % rekreatsiya ehtiyojlarini respublikaning boshqa hududlarida qondirishi, 5,9 % qo'shni davlatlarda, 4,6 % xorij mamlatlarida hamda 37,2 % qismi viloyat hududida ekanligi aniqlandi. Tahlil natijalariga shuni ko'rsatdiki, mahalliy aholining aksariyat qismisanotoriya-kurort xizmatlariga bo'lgan talabi yuqori bo'lgan.

Bugungi kunda turizm sohasida reklamaning o'rni muhim ahamiyat kasb qiladi. Viloyatning turistik-rekreatsion xizmatlari to'g'risidagi targ'ibot ishlari ichki va xalqaro bozorlarda yetarli darajada targ'ib qilinmaganligini ham alohida e'tirof qilish lozim. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, so'rovnomada respondentlarning turistik-rekreatsion xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni asosan qaysi manbalardan olishlarinibilan bog'liq savol qo'yilgan edi (5-rasm).

5-rasmda, 51 nafar respondent viloyatda turistik-rekreatsion xizmatlar haqida turistik tashkilotlar (asosan turoperatorlar) orqali, 87 nafar respondent televideoniy va radio orqali hamda 73 nafar respondent reklama va e'lon afishalar orqali xabardor bo'lishini bildirganlar. Shuningdek, 171 nafar respondent viloyatda taklif qilinayotgan turistik rekreatsion xizmatlar to'g'risida oila a'zolari va tanish bilishlari orqali xabardor bo'lishi, 224 nafar respondent esa internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali xabardor bo'lishini bildirganlar.

**5-rasm. Turistik-rekreatsion xizmatlar haqida ma'lumot olish manbalari**

Manba: So'rvonoma natijalariga muvofiq, muallif hisob-kitoblari

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rniда shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'tkazilgan so'rvonoma natijalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, Xorazm viloyatning doimiy yashovchi aholisi turistik-rekreatsion xizmatlar taklifidan qoniqish hosil qilmaydi. Rekreantlarning ko'pchilik qismi respublikaning boshqa hududlarida ushbu xizmat turlaridan foydalaniadi. Shuningdek, viloyatda turistik-rekreatsion turizmnинг asosiy obyektlaridan hisoblangan sanotoriya-kurort muassasalariga bo'lgan talab juda yuqorihisoblanar ekan. Chunki, Xorazm viloyatida ta sanotoriya-kurorat muassasi bo'lib, ular tomonidan taklif qilinayotgan xizmatlar bilan talab o'rtasida nomutonosiblik mavjud.

Tadqiqotlarimiz jarayonida Xorazm viloyatida turistik-rekreatsion xizmatlarning hozirgi holatini yaxshilash hamda istiqbolda yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

➤ Xorazm viloyatida mavjud turistik-rekreatsion resurslarni aniqlash va guruhlarga ajratib turistlar uchun amaliy yordam beruvchi axborotlar bazasini yaratish;

➤ Viloyatda sanotoriya-kurort muassasalarini tashkil qilishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini takomillashtirish, turistik-rekreatsion

xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga subsidiyalar ajratish hamda uzoq muddatli kredit mablag'larini ajratishning iqtisodiy-huquqiy asoslarini shakllantirish;

➤ Viloyatda mahalliy aholi hamda turistlar uchuntabiat qo'ynda dam olishga mo'ljallangan maxsus rekreatsiya maskanlar sonini ko'paytirish, madaniyat va istirohat bog'larida ko'proq aholini dam olishiga imkon beruvchi ko'ngilochar dasturlarni tashkillashtirish;

➤ Viloyatda turistik-rekreatsiya xizmatlarni ko'rsatuvchi infratuzilmalarni yaxshilash hamda sohaga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;

➤ Viloyatning turistik-rekreatsiya xizmatlarni ichki va xalqaro bozorlardatarg'ibotini kengaytirish, shuning bilan birgalikda ushbu xizmatlarni turistik paket sifatida intenet ijtimoiy tarmoqlarida on-line sotuvini yo'lga qo'yish.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amalga oshirilishi natijasida Xorazm viloyatining turistik-rekreatsiya xizmatlari ko'rsatilishi sifati oshadi, hududga tashrif buyirayotgan mahalliy va xorijiy turistlar soni ko'payib, turistik xizmatlar hajmi yana ortishiga olib keladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Travel and Tourism Council 2021 Annual Research: Key Highlights Uzbekistan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasidaturizmni jadal rivojlantirishga oidqo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611 Farmoni.
3. Григорьев В.И. Симонов В.С "Стратегия формирования индустрии рекреации" –СПб: Изд по СПбГУЭФ 2006 63
4. Ibadullaev, Ergash (2021) "Opportunities and prospects for the development of tourist and recreational services in the republic of Karakalpakstan" Central Asian Problems of Modern Science and Education: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 7.
5. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/capmse/vol2021/iss1/7>
6. Pardayev M.Q, Islomova R.A, Gapparov A.Q. "Rekreatsion zonalar va ekologik turizm ta'riflarini ishlab chiqishda nazariy va uslubiy yondashuvlar", Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish sihasi samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni takomillashtirish muammolari. Anjuman materiallari (2014 21-22 fevral) Smarqand, 2014- B 78-84
7. Usmonova Z.I. O'zbekistonda turizm – rekreatsion xizmatlarnirivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yichafalsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchunyoqilgan dissertatsiya avtoreferati. -SamSI, 2018 y.

8. Abduxakimov Z.T. Mintaqada rekreatsiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomilashtirish (Namangan viloyati misoldi). Iqtisodiyot fanlari bo'yichafalsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -SamISI, 2019 y. -12 b.
9. Mirzayev A.T. "Turizm rekreatsiyasi xizmatlari bozorida raqamlashtirishning yalpi talab o'zgarishiga ta'siri tahlili" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-yil.
10. Alimova G.A. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda rekreatsion-turistik salohiyatdan samarali foydalanish (Toshkent viloyati misoldi) Iqtisodiyot fanlari bo'yichafalsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -SamISI, 2019-y.
11. B.Ruzmetov, Sh.Bahtiyorov "Mintaqada turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirish omillari", "Turistik klasterlarni rivojlantirishning dolzorb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami. 5-iyun 2021-yil Samarqand.
12. Baxtiyorov Shohzod Sherzodbek o'g'li "Mintaqada turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirish yo'nalishlari" ixtisoslik: turizm mutaxassisligi magistr akademik darajasini olish uchun dissertatsiya ishi, Urganch – 2020 yil.
13. https://www.cdc.gov/coronavirus/2019-ncov/hcp/clinical-care/post-covid-conditions.html?CDC_AA_refVal=https%3A%2F%2Fwww.cdc.gov%2Fcoronavirus%2F2019-ncov%2Fhcp%2Fclinical-care%2Flate-sequelae.html
14. Ibadullayev E.B. "Xorazm viloyatida turistik-rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil
15. Saidmamatov, O., Matyakubov, U., Khodjaniyazov, E., Day, J., Ibadullaev, E., Chuponov, S., Bekjanov, D., Matniyozov, M., Matyusupov, B. (2021). TOWS analysis for sustainable ecotourism development and state support during the pandemic: The Aral Sea region of Uzbekistan. Turizm/Tourism, 31 (1), 47–56. <https://doi.org/10.18778/0867-5856.31.1.16>
16. Xorazm viloyati statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2020 yil.

ТУРИСТИК КЛАСТЕР: ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ ВА БУХОРО ВИЛОЯТИДА ГАСТРОНОМИК ТУРИЗМ КЛАСТЕРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

**Нарзиев Мирфайз Махмуджонович –
БухДУ докторант**

Аннотация: Мақолада жаҳондаги машҳур гастрономик турристик кластерларнинг ташкил топиши, шаклланиши ва ривожланиши ўйлари таҳлил қилинган бўлиб, уларнинг тажрибасига асосланаб, Бухоро вилоятида ҳам гастрономик туризм кластерларини ўйла қўйиш истиқболлари ёритилган.

Таянч сўзлар: турристик кластер, гастрономик туризм, турристик хизматлар, гастротур, кулинария, гастрономик бренд, миллий таомлар фестивали

ТУРИСТИЧЕСКИЙ КЛАСТЕР: МИРОВОЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГАСТРОНОМИЧЕСКОГО ТУРИСТИЧЕСКОГО КЛАСТЕРА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

**Нарзиев Мирфайз Махмуджонович –
докторант БухГУ**

Аннотация: В статье проанализированы пути формирования, становления и развития всемирно известных кластеров гастрономического туризма и на основе их опыта описаны перспективы создания кластеров гастрономического туризма в Бухарской области.

Ключевые слова: туристический кластер, гастрономический туризм, туристические услуги, гастротур, кулинария, гастрономический бренд, фестиваль национальной кухни.

TOURISM CLUSTER: WORLD EXPERIENCE AND PROSPECTS FOR FORMING A GASTRONOMIC TOURIST CLUSTER IN THE BUKHARA REGION

**Narziev Mirfayz Makhammadjonovich –
PhD student in Bukhara State University**

Abstract: The article analyzes the ways of formation and development of world famous clusters of gastronomic tourism and, on the basis of their experience, describes the prospects for creating clusters of gastronomic tourism in the Bukhara region.

Keywords: tourism cluster, gastronomic tourism, travel services, gastronomic tour, culinary, gastronomic brand, national cuisine festival.

Кириш. Кластер тизими назарий асосларининг ҳар томонлама чуқур ўрганилиши ва фанга киритилиши, 1890 йилда Кембриж мактабининг асосчиси А.Маршаллнинг "Иқтисодий фан асослари" китоби [1] нашр қилиниши билан бошланди. У ўз асарида кластер тушунчасини, "индустрисал районлар"нинг пайдо бўлиши ва агломерация жараёнида маълум бир географик худудда корхона-ташкилотлар ва ишчи кучи-

нинг бирлашуви сифатида таъкидлаган. Шу билан бирга, худуддаги бир-бирига яқин жойлашган ташкилотларнинг ҳамкорлиги натижасида З хил самараадорликка эришиши мумкинлигини айтиб, булар: "билим-тажриба" самараадорлиги; "ишли кучи харажатларининг пасайиши" самараадорлиги ва "харидор-сотувчи" самараадорлигиdir.